



EOC
EUROASIAN
ONLINE
CONFERENCES

GERMANY CONFERENCE

**INTERNATIONAL CONFERENCE ON
SCIENCE, ENGINEERING AND
TECHNOLOGY**



Google Scholar

zenodo

OpenAIRE

doi[®] digital object
identifier

eoconf.com - from 2024



INTERNATIONAL CONFERENCE ON SCIENCE, ENGINEERING AND TECHNOLOGY:
a collection scientific works of the International scientific conference –
Gamburg, Germany, 2025 Issue 6

Languages of publication: Uzbek, English, Russian, German, Italian, Spanish,

The collection consists of scientific research of scientists, graduate students and students who took part in the International Scientific online conference « **INTERNATIONAL CONFERENCE ON SCIENCE, ENGINEERING AND TECHNOLOGY** ». Which took place in Gamburg, 2025.

Conference proceedings are recommended for scientists and teachers in higher education establishments. They can be used in education, including the process of post - graduate teaching, preparation for obtain bachelors' and masters' degrees. The review of all articles was accomplished by experts, materials are according to authors copyright. The authors are responsible for content, researches results and errors.



She'riy matnda til birliklarining funksional-semantik xususiyatlari Sindarov Kaxramon Tolliboyevich

JDPU O'zbek adabiyotini o'qitish metodikasi kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqola she'riy matnlarning pragmatistik xususiyatlarini o'rganishga qaratilgan bo'lib, badiiy xoslangan til birliklarini aniqlashga alohida e'tibor beradi. Tahlil jarayoni faqat shakliy va grammatik jihatlarni o'rganish bilan cheklanmay, balki poetik mazmun bilan boyitilgan til vositalarini ham o'z ichiga oladi. Shu nuqtayi nazardan, matnni chuqur o'rganish lingvopoetika sohasi doirasiga kiradi.

Kalit so'zlar: poetika, poetik sintaksis, poetik semantika, leksopragmatika, lingvopragmatika, ma'no.

She'riy matnning lingopragmatik xususiyatlari, bu imkoniyatlarni yuzaga keltiruvchi omillarni o'rganish, tilning ijtimoiy mohiyatini aniqlash uchun zarurdir. Sh. Safarovning "Til tizimi taraqqiyotining boshlang'ich nuqtasi (davri) pragmatikadan boshlanadi" – kabi fikriga qo'shilish mumkin. Chunki, til birinchi navbatda so'zlovchining shaxsiy kommunikativ maqsadi, istagi, niyati, foydasi uchun xizmat qilishi ma'lum. Shu bois, badiiy matn yaratishda tildan foydalanish jarayonida ijodkorning (ya'ni til shaxsining) individual xususiyatlarini o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Badiiy matnni shakllantirish jarayoni – personaj nutqini individualizatsiya qilish, muloqot nutqini moslashtirish, portret, peyzaj va poetik obrazlarni yaratish, shuningdek, leksik-frazeologik boyliklardan va ifoda-tasvir vositalaridan samarali foydalanish – to'liq yozuvchining mahorati va iqtidoriga bog'liqdir.

Pragmatika tilshunoslikning alohida sohasi bo'lib, uning tadqiqot doirasi muloqot jarayonida lisoniy birliklarni tanlash, ularni oqilona qo'llash hamda shu birliklarning muloqot ishtirokchilariga ta'sirini chuqur o'rganishni o'z ichiga oladi. Shu bilan birga, ushbu qoidalar va tamoyillar kommunikatsiya shart-sharoitlariga mos ravishda, keng ma'nodagi kontekst sifatida tahlil qilinadi, bu esa til birliklarining amaliy ishlatilishi va ularning funksional rolini aniqlash imkonini beradi. Lisoniy hodisalarni shunday yo'sinda tahlil qilish ularning qo'llanishida yuzaga keladigan turli muhitlar, mavjud to'siqlar, chegaralashlar va cheklovlarni aniqlashga imkon beradi. Natijada tilning amaliy va badiiy funksiyalari yanada chuqurroq va teran o'rganiladi.

Lingvistik tahlilning yetakchi g'oyasi ham tilning mohiyatini uning amaliy faoliyatda qo'llanilishiga nisbatan aniqlash, ya'ni til birligini bajarayotgan vazifasi doirasida o'rganishdan iboratdir. Aynan vazifa (funksiya) tushunchasi lingvistik tahlilda pragmalingvistik yondoshuvning asosiy poydevorini tashkil yetadi.

Lingvistik pragmatika tadqiqoti juda keng doiraga ega. Bunda til birliklarining nutqiy vaziyat va kontekst bilan bog'liqligi, muloqot jarayonida kishilar o'rtasidagi munosabatni ifoda etuvchi lisoniy etiketlar, nutqning ijtimoiy jihatdan xoslanishi, shuningdek baho bildiruvchi so'z va vositalar



tahlil qilinadi. Shu tariqa, lingvistik pragmatika tilning har bir nutqiy birlikdagi funksiyasini, uning muloqot jarayonidagi rolini va turli sharoitlarda qo'llanilishining xususiyatlarini aniq va tizimli o'rganishga xizmat qiladi, insonning botiniy subyektiv ruhiyatini ifoda etuvchi diskurs va presuppozitsiya hodisasini to'laligicha o'rganish maqsad qilib belgilandi.

Pragmatika til sathi nuqtayi nazaridan ierarxik qismlarga ajralishi mumkin. O'zbek tilida matnning pragmatik talqini muammolari til sathlari kesimida ko'rib chiqish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. M.Hakimov "O'zbek pragmalingsistikasi asoslari" monografiyasida lingvopragmatikaning fonopragmatika va leksopragmatika kabi sath xususida qarashlarini bayon etadi. Monografiyaga ko'ra fonopragmatika haqida dastlab rus tilshunosligida o'tgan asrning 80-yillarida ilk ma'lumotlar keltirilgan. Biroq bunga qadar A.S.Axmanova, I.M.Malgajdarovanning "Pragmatik lingvistika" atamasi xususida mulohazalari bilan chegaralangan masalalar maqolasi nashr qilingan.

Pragmatika – so'zlashuv matnda tilning qo'llanilishi, nutqning ma'nosini tushinishda ham muhim rol o'ynaydi. Til sathlari – fonetika, morfologiya, sintaksis, leksika va diskurs kabilarni o'z ichiga oladi.

Pragmatik tahlil jarayonida pragmalingsvistika atamasi ifodalagan tushuncha mohiyatini oydinlashtirish uchun ingliz tili fonetikasini o'qitish bilan aloqador metodik usul – talaffuzning lingafon apparati orqali o'rganilishi e'tiborga olinishi lozim. Lingvopragmatik metodologiya jihatidan tilning fonetik birliklarining optimal variantidagi talaffuz shakllari muhimdir. Xalqaro tilde intonatsiyalar tilning nutqiy fonetik birliklarida namoyon bo'ladi. Talaffuzning muayyan optimal variantda qo'llanilishi, mukammal fonetik apparat bilan bog'liq intilishni izohlaydi. Shu jihatdan fonetik birliklardagi pragmatik mujassamlilik tilni o'rgatuvchi mahorati bilan ajralib turadi.

Nutq subyektini nazarda tutgan yagona niyatning to'g'ri va aniq ifodalanishi uchun me'yoriy talaffuz shakllariga yuqori va quyi ohang (intonatsiya) ham qo'shiladi.

Oh, mening ortimdan **ovvora** onam,
Bir **parcha yuragi** ming pora onam.
Har baloni ko'rib yorug' dunyoda,
Toshkanni ko'rmagan bechora onam,
Bolang bo'lib bir bor boshlab keldimmi,
Endi men ham senga o'g'il bo'ldimmi!..

Muhammad Yusuf she'rida tovushlar orqali emotsiya va pragmatik ma'nolar quyidagicha ifodalangan:

1. Yordamchilar orqali ("**Oh**", "**mi!..**") - chuqur hissiyot (iztirob, minnatdorchilik).
2. Tovush takrorlari ("**ovvora**") – mavzuning ahamiyatini kuchaytiradi.
3. Talaffuzdagi keskinlik ("**parcha yuragi**") – og'irlik, azob-uqubat tasviri.



4. **(Toshkanni ko'rmagan bechora onam)** – bu o'rinda qishloqdan chiqqan oddiy qishloq yigiti onasini shaharga, poytaxtga, olib borolmaganini Toshkent so'zining Toshkan dialektal variantini qo'llash bilan ifodalagan.

5. Ohang o'zgarishi **(“o'g'il bo'ldimmi!..”)** – shaxsiy munosabatni yetarlicha amalga oshira olmaganlik. Bu she'rda har bir tanlangan so'zlarda tovush o'zgarishi orqali emotsional ta'sirni oshirishga erishilgan.

She'riy nutq talaffuzining inversiya hodisasiga asoslanishi faktik akt uchun me'yoriy holat sanaladi.

Abdulla Oripovning she'rlarida so'z tanlovining ahamiyati va so'z boyligining stilistik ta'sirini ko'rsatadigan misollar ko'p. Shoir so'zlarni mohirona, obrazli ifodalay olgan.

“Yer yuzida qonrang quyosh,

Ko'kda o't yoqib yurgan bulutlar...”

Bu yerda oddiy “qizil” so'zi o'rniga “qonrang” ishlatilgani quyoshning nafisligini, hayotiylikni va hatto dramatik tasvirini kuchaytiradi. “Qon” so'zi hayot, qudrat, shafqatsizlik kabi qo'shimcha ma'noalr uyg'otadi.

Badiiy asar yaratishda yozuvchining tafakkuridagi idroki (ya'ni, matnni shakllantirish motivi, strategiya va taktikalari) lisoniy voqelanishning murakkab kognitiv, stilistik, semantik va pragmatik doirasida yuzaga keladi. Shu sababli, pragmatika semantika, stilistika va sintaksis kabi sohalarda o'rganiladigan masalalarni o'z ichiga oladi hamda ularning o'ziga xos umumlashtiruvchi sohasi sifatida faoliyat ko'rsatadi. Darhaqiqat, pragmatika uchun muhim masalalar shundan iboratki, inson qanday belgidan, qachon, nima uchun (ya'ni, qanday maqsadda) foydalanganini aniqlash zarur. Bu, o'z navbatida, belgilarning o'zaro birikib, lisoniy struktura (sintaksis) hosil qilishi va bu struktura orqali matn (yoki muloqot) tarkibida foydalanuvchilarning maqsadiga mos ma'no ifodalash imkoniyatlarini tahlil qilishni talab etadi.

Pragmatik tahlil doirasiga, shuningdek, so'zlarning, so'z shakllarining va uslubiy vositalarning tanlanishi ham kiradi, chunki bu jarayonlar o'zaro muloqotdagi ma'no, stilistik qatlam va kontekstual izohlarni shakllantiradi. Shunday qilib, matnning pragmatik tadqiqotida semantika, stilistika va sintaksis kabi sohalarni bir-biridan ajratib ko'rishning imkoni yo'q. Lingvopragmatika, muloqotning real sharoitida mavjudligi va uning vazifa bajarilishiga bog'liq masalalar bilan bog'liq bo'lib, aslida pragmatika kontekst tarkibidagi ma'noning shakllanishi va izohlanishi bilan shug'ullanadi. Bu jarayon, o'z navbatida, tilning maqsadga muvofiq ishlatilishini va muloqotning pragmatik samarasini o'rganishga imkon beradi.

She'riy matnda til birliklarining badiiy-pragmatik vazifasi tilning faqat shakliy emas, balki **kommunikativ niyat, emotsional ta'sir va estetik maqsad** bilan bog'liq holda qo'llanishini ko'rsatadi. Lingvopragmatik yondashuv she'riy nutqda fonetik, leksik va sintaktik birliklarning muallif shaxsiyati, nutqiy vaziyat va kontekst bilan uzviy aloqada ekanini ochib



beradi. Poetik matnda tovush, ohang, soʻz tanlovi va stilistik vositalar oʻquvchiga kuchli hissiy-taʼsirchan maʼno yetkazish vazifasini bajaradi. Demak, sheʼriy matnni toʻlaonli tahlil qilish lingvopoetika va pragmatika uygʻunligida amalga oshirilgandagina badiiy mazmunning chuqur qatlamlari ochiladi.

ADABIYOTLAR ROʻYXATI

1. Сафаров Ш. Прагмалингвистика. - Тошкент: "Ўзбекистон миллий энциклопедияси" Давлат илмий нашриёти, 2008. - Б. 40.
2. Бу ҳақда қаранг: Ҳакимов М. Ўзбек тилида матннинг прагматик талқини: Филол. фан. док. ...дис. автореф. - Тошкент, 2001. - Б. 15-17.
3. Ҳакимов М. Ўзбек прагмалингвистикаси асослари. - Тошкент: Академнашр, 2013. - Б. 26.
4. Ҳакимов М. Ўзбек прагмалингвистикаси асослари. - Тошкент: Академнашр, 2013. - Б. 26.
5. Muhammad Y. Saylanma: Sheʼrlar. Dostonlar. Xotiralar. – T.: "Sharq", 2007. – B. 288.
6. Ҳакимов М. Ўзбек прагмалингвистикаси асослари. - Тошкент: Академнашр, 2013. - Б. 34.